

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

“SADDI ISKANDARIY” DOSTONIDAGI HIKOYATLARDA TARIXIY SHAXSLAR OBRAZI

Umida Otayarova

O‘zbekiston-Finlandiya Pedagogika instituti
o‘qituvchisi

E-mail: umida.bolibekovna@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Saddi Iskandariy” dostonida keltirilgan tarixiy shaxslar hayotiga oid hikoyatlar tahlil etilgan. Hikoyatlar mazmuniga singdirilgan adolat, himmat, mehmon kutish odobi, moddiy boyliklarga ortiqcha ruju qo‘ymaslik g‘oyalari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: tarixiy shaxslar, Ardavon, Ardasher, Mahmud, Mas‘ud, Luqmoni hakim, adolat, saxovat, mehmon kutish.

Абстрактный: В данной статье анализируются рассказы о жизни исторических деятелей эпоса «Садди Искандари». Раскрываются идеи справедливости, трудолюбия, манеры ожидания гостей, не слишком большого акцента на материальных благах, заложенные в содержании рассказов.

Ключевые слова: исторические личности, Ардаван, Ардашер, Махмуд, Масуд, Лукмани Хахим, справедливость, щедрость, гостеприимство.

Abstract: This article analyzes the stories in the "Saddi Iskandariy" where the lives of historical figures are depicted. The stories emphasize justice, courage, hospitality, and the avoidance of material wealth in their content.

Keywords: historical figures, Ardavon, Ardasher, Mahmud, Mas'ud, Luqmoni the judge, justice, kindness, hospitality.

Alisher Navoiy “Saddi Iskandariy” dostonida nafaqat Iskandar hayoti bilan bog‘liq voqealarni, balki boshqa tarixiy shaxslar: hakimlar, shohlar obrazini ham beradiki, bu asarga badiiy qimmat berish bilan birga uning realistik ruhini oshirishga, ishonchlilik qimmatini belgilashga xizmat qiladi.

Dostonda fikr tasdig‘i sifatida keltirilgan turli mavzudagi o‘n sakkiz hikoyatning 21-, 29-, 50-, 54-, 78-boblari tarixiy shaxslar hayoti bilan bog‘liq bo‘lib, asarning ishonchlilik darajasi oshishiga xizmat qilgan. Chunki afsonaviy yoxud xayoliy obrazlardan ko‘ra tarixiy obrazlar hayoti o‘quvchini ko‘proq qiziqtiradi va ibrat olishga undaydi.

Yigirmanchi bobda adolat xususida so‘z yuritiladi va Navoiy uning martabasi juda yuqori ekanligini Anushervoni odil obrazi orqali ochib bergan. Podshoh mazhabda musulmon bo‘lmasa ham, lekin adolat bobida mashhur edi. Garchi kofirning o‘rni do‘zax bo‘lsa ham, odillik sifati uni arofatga dalolat qildi. Agar kofirligi uni jannat sari yo‘latmagan bo‘lsa, adolatliligi do‘zax sari qo‘ymadi. Uning o‘lib ketganiga ming yillar bo‘lsa-da nomi hamon yashaydi, deya adolatning martabasini ko‘rsatadi. Navoiy bu bilan temuriylarni adolatli bo‘lishga chorlaydi.

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

Payg‘ambarimiz s.a.v. hadislaridan ham namunalar keltirib, “Adolat bilan o‘tgan bir soat inson-u jin xaylining toat-ibodatidan afzaldir”, - deb yozadi. Payg‘ambarimizning shu xususida yana bir hadisi mavjud: “Agar obod mamlakatga qaralmasa, u kufr aro qoladi, agar u vayronalikka yuz tutgan bo‘lsa, bu zulm o‘tkazganlikning natijasidir”. Hazrat Navoiy mazkur bobda adolat va zulmni qiyoslab, unisining foydalarini va bunisining zararlarini sanab o‘tadi. Xalqqa zulm qilish, avvalo, o‘z-o‘ziga zulm qilishdir. Chunki adolatli bo‘lmagan shohni Olloh ham xushlamaydi, xalq ham qarg‘aydi. Shu bois shoh uchun mustahkam bog‘ich bu adolatdir. Shoir fikrining isboti sifatida XXI bobda “Mahmud hikoyatikim, ajal og‘ir uyqusig‘a borg‘ondan so‘ngra Mas‘udning tushiga kirdi va adolat aynin paydo qilur uchun anga pandlar berdi va nasihat zilolidin aning yuziga bir suv urdikim, ani g‘aflat uyqusidin seskantirdi” [4.92] nomli hikoyat keltiradi. Unga ko‘ra, Mahmud vafot etayotganda o‘z o‘rniga valiahd qilib o‘gli Mas‘udni o‘tqizib, bu foniq dunyoni tark etadi. Otasi vafotidan so‘ng Mas‘ud ancha vaqt nola-fayod chekib yurdi (Iskandar kabi). Kunlarning birida tushiga otasi kirib, o‘g‘liga nasihat qiladi. Tushida otasi boshdan oyoq nurga burkangan holda ajoyib bir bog‘da turar emish. Unga dam-badam xursandchilik yuzlanib, shodligi ortar emish. Oldida vasfining tavsifi uchun so‘z ojizlik qiladigan zumradrang hovuz bo‘lib, uning darvozasi xuddi ko‘k gumbazidek, suvning rangi va tusi esa xuddi jannat bulog‘ining suviga monand emish. Hovuzning qirg‘og‘ida xuddi baxt singari soya solib turgan bir daraxt bor edi. Uning qaddi oldida “to‘biy” daraxti ham past bo‘lib ko‘rinar, soyasi esa butun gulbog‘ sahnini egallagan edi. Buning go‘zalligidan ko‘z ravshan, hididan dimog‘ muattar bo‘lar edi. Shoh Mas‘ud bu ajoyib holni ko‘rgach, otasidan sababini so‘raydi:

Ki: “Sultonlig‘ing ichra netting ekin

Ki bu nav‘ manzilg‘a yetting ekin” [4.93].

Otasi buning sababini Hindistonga borganida bir kampirga adolat qilgani bilan izohlaydi va “Kampirga qaytarganim ikki shox o‘tin badali mana shu to‘biysifat daraxt, yashil idishning evazi esa zumurradrang hovuzdir. Kampir olgan bir etak somon – za‘faron rangli xushbo‘y o‘simliklardir”, - deya javob beradi. Mas‘ud uyqusidan uyg‘onganida xotiri turli qayg‘ulardan forig‘ bo‘lgan edi. U otasining aytganlaridan xulosa chiqarib, o‘ziga adolat yo‘lini – to‘g‘ri va haq yo‘lini tanladi. Qaysi shoh Mas‘uddek adolat yo‘lini tutsa, Mahmuddek izzat-ikromga sazovor bo‘ladi”.

Bundan tashqari dostonida XXIX bob “Sulton Abu Said Ko‘ragon hikoyatikim, royi uqdakushoyi bila ko‘p mamlakat oldi va tig‘i umrfarsoyi bila ko‘p elga oshub soldi va lekin sipohi rozi emas erkandin ish

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

vaqti borcha o‘zg‘oldi va o‘zi a‘do aro mahlakaga qoldi, balki xasm ul sarafrozning tig‘i kin bila bo‘ynin choldi” deb nomlangan. Abu Said Ko‘ragoniy haqidagi hikoyat bo‘lib, unga ko‘ra, Abu Said Ko‘ragon bilimi va tadbirkorligi bois juda ko‘p mamlakatlarni bosib olgan, xazinasining ularning boyliklari bilan to‘ldirgan, ammo askarlarini bundan bahramand etmas edi. Kunlarning birida Ko‘ragon Tabriz-u Runga hujum qilib, u yerlarni bosib olish haqida farmon beradi. U yerning shohi ham mamlakati va fuqarolari aziyat chekmasligi uchun dushman qarshisiga chiqadi. Jang nihoyatda cho‘zilib ketadi. Shohidan rozi bo‘lmagan Abu Said Ko‘ragon askarlari dushman tomonga qochib o‘ta boshlaydilar, hatto bu bilan ham kifoyalanmay ularga yordam bera boshlaydilar. Oqibatda, Abu Said Ko‘ragon o‘zi yolg‘iz qolib dushmanga yengiladi va ular tomonidan o‘ldiriladi.

Navoiy:

Shahu xayl ma’shuqu oshiq kerak,

Ne ishkim qilurlar muvofiq kerak.

Jahon olmoq oson sarukor emas:

Vale ittifoq o‘lsa dushvor emas [4.157],

deya shoh va askarlar bir-biri bilan xuddi oshiq-ma’shuqdek bo‘lishi kerak. Nima ish qilmoqchi bo‘lishsa, kelishib qilishlari kerakligini ta’kidlaydi. Dunyoni olish aslida mushkul ish, ammo ittifoq bo‘lsa, bu qiyin emas. Ko‘rib chiqilgaidek, har ikkala hikoyatda ham hazrat Navoiy podshohlarni adolatga, ma’rifatli bo‘lishga chorlaydi.

Keyingi hikoyat ham podshohlar haqida bo‘lib, Ardasherining tadbirkorligi sabab behuda qon to‘kilishining oldi olinadi. Bu hikoya orqali inson aql bilan ish tutishi lozimligi, shoshma-shosharlik yomon oqibatlarga olib kelishi g‘oyasi ilgari surilgan. Bu hikoya dostonning umumiy sujetiga uyg‘un bo‘lib, Chin hoqoni va Hind royi urushning oldini olish uchun Iskandar bilan sulh tuzadilar va buning natijasida minglab begunoh odamlarning o‘lib ketishi va shaharlarning vayron bo‘lishining oldi olinadi. Zero, Navoiy ham butun umri davomida temuriylarni shunday yo‘l tutishga rag‘abtlantirib kelgan. Buning birgina misoli Husayn Boyqaro va Badiuzzamon o‘rtasidagi jangning oldi olinishida Navoiyning behad xizmati kattaligidan tarix guvohlik beradi.

LIV bob Bahrom go‘r va uch olachuq eli haqidagi hikoyat bo‘lib, Navoiy bu hikoyatda mehmonnavozlik haqida fikr yuritadi va mehmonnavozlik dabdaba-yu as’asada emas, balki mehmonning ko‘nglini olib, uning qornini to‘yg‘izmoqlikdadir, degan g‘oyani ilgari suradi.

“Saddi Iskandariy” dostonida LXXVIII bob Luqmoni hakim haqida bo‘lib, hakimning vayronada kun kechirishi sababini so‘rashganida “...dunyoga hirs qo‘ygan

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

bilan, mol-dunyo yig‘gan bilan baribir u dunyoga quruq qo‘l bilan qaytamiz, bu kajraftor dunyo ketar chog‘imda shu vayronamni ham tortib oladi. Shunday ekan, boylik yig‘ishdan nima naf?” deya javob beradi

“...Chu oxir adam sori qo‘yg‘um qadam,

Manga bordur ortug‘ bu vayrona ham.

Jahondin necha el haroson erur,

Aning ranjidin maxlas oson erur” [4.415].

(Ya‘ni kim dunyoga hirs qo‘ymas ekan, jahonning ranj-mashaqqatidan xalos bo‘lishi osonroqdir).

Xulosa qilib aytganda, asarda tarixiy shaxslar hayotiga oid hikoyatlar nafaqat temuriylar, balki butun insoniyat uchun ibrat ko‘zgusi bo‘lib xizmat qiladi. Hikoyatlarning mazmuniga adolat, saxovat, himmat, mehmonnavozlik g‘oyalari singdirilgan bo‘lib, asarning badiiy qimmatini, saviyasini oshirgan.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Абдуғафуров А. Буюк бешлик сабоқлари. – Т: Гафур Фулом номидаги бадий адабиёт нашриёти, 1995;
2. Алишер Навоий. Садди Искандарий. Мукамал асарлар тўплами. 20 жилдлик. – Т.: Фан, 1993. 11-жилд.
3. Комилов Н. Хизир чашмаси. – Тошкент: Маънавият, 2005. Б 320
4. Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. – Т.: G‘.G‘ulom nomidagi NMIU, 2006
5. Бертельс Е.Э. Избранные труды. Том 4. Навои и Джамии. – Москва: Наука, 1965. – С. 283-368.
6. Ismoilov I. Alisher Navoiy «Saddi Iskandariy» dostonining qiyosiy tahlili. Phd dissertatsiyasi. T.2019
7. Исмоилов И. Алишер Навоийнинг “Садди Искандарий” достони генезеси ва поэтикаси. (Монография). – Т.: Anorbooks, 2022. – 150 б.
8. “Jahon adabiyoti” jurnali, 2006-yil, 2-son. Rus tilidan Ulug‘bek Abdullayev tarjiması.
9. Жомий. Хирадномаи Искандарий. Критический текст. Москва, Наука, 1984